

RESEARCH AND EDUCATION
Scientific Research Center

ISSN: 2181-3191

INTERNATIONAL CONFERENCE
ON LEARNING AND TEACHING
2022/15

30 AUGUST, 2022 YEAR

International Scientific Conference

RESEARCHEDU.ORG



PKP | INDEX



NIH
Biomedical
Research
Center

National Institute
on Aging

National Institute
on Drug Abuse



National Institutes of Health

“RESEARCH AND EDUCATION”

Scientific Research Center



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/15”

www.researchedu.uz

Languages of publication: o‘zbek, english, русский, қазақ, точик, қарақалпақ

TASHKENT, UZBEKISTAN

2022/ August 30

**INTENSIV OLMA BOG‘LARIDA DARAXTLARNING O‘SISHI,
RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI,
KO‘CHAT QALINLIGI VA NAV-PAYVANDTAG KOMBINATSIYALARIGA
BOG‘LIQLILIGI**

Yunusov Rustam

Buxoro davlat universiteti

E-mail: f-ganieva@inbox.ru

Ganieva Feruza Amrilloevna

E-mail: f-ganieva@inbox.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro viloyati Buxoro tumani “Siyovush Agro” MCHJ bog‘dorchilik fermer xo‘jaligida olma daraxtlarining biologik xususiyatlari, ko‘chat qalinligi hamda nav-payvandtag kombinatsiyalarini inobatga olgan holda resurs – tejamkor innovatsiyasi texnologiyalari bo‘yicha parvarishlash asoslari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: intensiv pakana olma bog‘lari, biologik xususiyatlari, nav-payvandtag kombinatsiyalari, resurs tejamkor texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish, yorug‘lik, hosildorlik, miqdori va sifati.

Abstract: In this article, the principles of resource-saving innovation technology care of apple trees in the horticultural farm of "Siyovush Agro" LLC, Bukhara district, Bukhara region, taking into account the biological characteristics, seedling thickness and variety-grafting combinations, are studied.

Keywords: intensive apple orchards, biological characteristics, cultivar-graft combinations, resource efficient technologies, drip irrigation, light, productivity, quantity and quality.

Intensiv mevalilik, shu jumladan urug‘li mevalilar agrar sohasining eng muhim va o‘ziga xos sohaga ega. Olma va olmozorlar maydoni va hosildorligi respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida keskin oshmoqda.

Jadallashgan (intensiv) bog‘larni barpo qilish va rivojlantirishda birinchidan, olma navi va uning payvandtag kombinatsiyasiga, olma daraxtlarning shakliga, tanasining kichik hajmliligi, agrotexnik tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazishda daraxtlarning biologik xususiyatlarini e‘tiborga olib ilmiy asoslangan innovatsion resurs-tejamkor texnologiya asosida parvarish qilish, muttasil mo‘l va sifatli hosil olishga yo‘naltirish davr talabi hisoblanadi [1,3,5,7].

Buxoro viloyati tuproq iqlim sharoitida ham intensiv pakana olma bog‘lari barpo qilinmoqda. Bu intensiv olma bog‘larida yosh mevali daraxtlarning o‘ssishi, rivojlanishi va hosildorlini sifat va miqdorini o‘rganishda oxirgi yillarda keng tarqalgan nav – payvandtag kombinatsiyalari, biologik xususiyatlarini o‘rganish va ishlab chiqarishga keng joriy qilib yuqori daromad olinmoqda.

Tajriba o‘tkazish joyi va uslubiyoti. Mazkur ilmiy-tadqiqot 2020-2022 yillarda Buxoro viloyati Buxoro tumani “Siyovush Agro” MCHJ bog‘dorchilik fermer xo‘jaligida 52 ga maydonda joylashgan olmaning pakana navi – Goldspur sekin o‘sovchi MM-106 payvandtagga ulangan daraxtlarda o‘tqazib kelinmoqda. Buxoro viloyati Buxoro tumani “Siyovush Agro” MCHJ bog‘dorchilik fermer xo‘jaligi tuproqlari qadimdan sug‘oriladigan allyuvial kuchsiz sho‘rlangan tuproqdan iborat bo‘lib, suv sathining yuza joylashganligi bilan (0.80-1.50m) boshqa hududlardan keskin farqlanadi. Mexanik tarkibi bo‘yicha o‘rtacha soz tuproqli hisoblanadi. Sug‘oriladigan dala sharoitida tuproq hosil bo‘lishi jarayonlarida ona jinsi, rel‘efi, sizot suvlari kabilar agroirrigatsion yotqiziqlarining yetilishiga bevosita bog‘liqdir.

Buxoro tumani, “Bog‘i Kalon” MFY hududida joylashgan MCHJ “SiyovushAgro” bog‘dorchilik fermer xo‘jaligida yetishtiriladigan pakana olma bog‘laridan olingan tuproq namunalari “Uzdaverloyiha” instituti “Buxoro viloyat yer loyiha” bo‘linmasi laboratoriyasida agrokimyoviy tahlillar qilingan va tuproqlarni chuqurligi bilan tuproqdagi agrokimyoviy xossalarni o‘zgarishi va chuqurlik oshishi bilan bir vaqtda bu ko‘rsatkichlar kamayib borishi aniqlangan [7.8.9].

Tadqiqot ob’ekti. Pakana olma daraxtlar sekin o’suvchi payvandtagga ulangan nav – Goldspur navi 2020 yilda olma bog‘lariga 4.0x1.0m, 4.0x1.2m, 4.0x1.4m, 4.0x1.6m, 4.0x1.8m, 4.0x2.0m tartibda joylashgan va bir gektar maydonda o‘rtacha 1250-2500 dona olma ko‘chati o‘tqazilgan. Payvandtag sifatida tajriba va sinov bog‘larida M-9 sekin va o‘rta o’suvchi payvandtaglardan foydalanilgan. Mazkur payvandtag Angliyaning Merlin Melton stantsiyasida yaratilgan va ayni paytda respublikamiz pakana bog‘dorchilik maydonlarida keng tarqalgan va yuqori samara bermoqda.

Tajriba bog‘ida olma daraxtlariga shox-shabbalari yarim siyraklashtirilgan usulda shakl berilgan. Mazkur intensiv olma bog‘ida pakana olma daraxtlari resurs-tejamkor tomchilatib usulda sug‘oriladi. Kun oralab tomchilatib sug‘orish usulida olma daraxtlari rezina quvurlari orqali sug‘oriladi. Pirovard natijada suv sarfi 2-3marotaba tejaldi. Past bo‘yli sekin va o‘rta o’suvchi payvandtaglarga ulangan olma navlarida assimilyatsiya o‘shish jarayonida hosil bo‘lgan meva kurtaklar hosilni shakllantirish uchun unumli foydalanadi, yuqori hosil olish uchun sharoit yaratiladi. Vegetatsiya davomida pakana olma daraxtlarini qator oralari begona o‘tlardan tozalanib, azotli o‘g‘itlar 250kg/ga, fosforli o‘g‘itlar – 180kg/ga va kaliyli o‘g‘itlar esa 45-60kg/ga me’yorda sof holda kiritiladi.

Tadqiqot natijalari. Buxoro viloyati, Buxoro tumani “Bog‘i Kalon” MFY hududida joylashgan “SièvushAgro” MCHJ bog‘dorchilik fermer xo‘jaligidagi pakana intensiv bog‘da olma daraxtlarini o‘ziga xos biologik xususiyatlari, rivojlanishi, hosildorlik va uning sifatiga ko‘chat qalinligi, nav-payvandtaglar kombinatsiya xususiyatlari ta’sirini ilmiy tadqiqot va sinov natijalarida o‘rganib kelinmoqda. Mazkur ishda pakana olma daraxtlarini èrug‘lik, barg sathi kabi ko‘rsatkichlarining o‘shishi va yaxshilanishi qayd etilgan. Olib borilgan tadqiqotlar pakana olma navi Goldspurda 2020 yilda èrug‘likni yuqori ko‘rsatkichi ekanligi qayd etilgan, 2021 yilda esa pakana olma daraxtlarini maqbul o‘shishi va rivojlanishi hamda daraxtlarni hajmini èrug‘lik ko‘rsatkichlari 2-4%gacha 2022 yilda esa 4-6%ga kamayganligi aniqlangan. SHuni qayd etish lozimki, bu èrug‘likni kamayishi pakana olma navlarini maqbul o‘shishi va hosil elementlarining shakllanishiga sezilarli

darajada ta'sir qilmagan. 2022 yilda ham tajriba va sinov o'tkaziladigan olma bog'larida daraxtlarning o'sishi, gullashi, meva elementlarining shakllanishiga deyarli ta'sir qilmagan va yaxshi ilmiy natijalar olingan.

Buxoro viloyati, Buxoro tumani “Bog'i Kalon” MFY hududida joylashgan “SièvushAgro” MCHJ bog'dorchilik fermer xo'jaligida 2022 yilda barcha resurs tejamkor innovatsion agrotexnologik omillarni qo'llash, pakana olma navlari daraxtlarini zararli organizmlardan himoya qilish agrotexnik chora-tadbirlarni bevosita mazkur xo'jaligini agronomlari bilan hamkorlikda bajariladi va mazkur bog'ni samaradorligi keskin oshdi.

2022 yilda ushbu bog'dorchilik fermer xo'jaligida pakana olma daraxtlarini maqbul xo'jaligida resurs tejamkor innovatsion agrotexnologiyalar asosida parvarish qilinganligi, biologik xususiyatlarni hisobga olinishi, qulay nav-payvandtaglar hamda maqbul ko'chat qalinligini tanlab olishi, pirovard natijada ikki yillik pakana olmaning Goldspur va Golden Delishes kabi navlar daraxtlarini shox-shabbasini maqbul darajada tanaga joylashganligi sababli èrug'lik ko'rsatkichlari barcha tana qismlarida yuqori bo'ldi. Bir dona pakana olma daraxtidan o'rtacha 1.0-4.0kg sifatli hosil olindi va bir gektar hisobiga hosildorlik 25.0-110.0 ts/gani tashkil qildi. Bu kabi bog'larda meva yetishtirishni samaradorligi keskin oshdi katta daromad keltirdi.

Xulosa. 2020-2022 yillarda o'tkazilaètgan ilmiy tadqiqot va sinov natijalari shundan darak beradiki, pakana olma navlari shox-shabbalari optimal hajmda shakllanishi natijasida èrug'lik ko'rsatkichlari intensiv pakana olma daraxtlari uchun maqbul bo'ldi, olma shox-shabbalarini ilmiy asosda kesish va to'g'ri shakl berishi jarayonida fitometrik ko'rsatkichlarini va biologik xususiyatlarini yaxshilashga keltiradi, pakana olma daraxtlarining mahsuldorligi mo'l bo'lishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yunusov, R., Ganieva, F. A., Artikova, M. I., & Ataeva, Z. A. (2022). THE DEPENDENCE OF THE GROWTH, DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF APPLE TREES ON THE FACTORS OF CARE ON LOW-SALINE SOILS OF THE BUKHARA REGION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 773-781.

2. Ganieva, F. (2021). ROST I PLODONOSHENIE DEREV'YEV PERSIKA V OROSHAEMYX SADAX V ZAVISIMOSTI OT KONSTRUKTSII KRONY. *TSENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 6(6).

3. Rustam, Y., & Amrillojevna, G. F. (2022, February). INTENSIV PAKANA NOK NAVLARINING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSIL ELEMENTLARI SHAKLLANISHINING NAV-PAYVANDTAGLAR KOMBINATSIYASI VA KO'CHAT QALINLIGIGA BOG'LIQLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 2).

6. Yunusov, R., F.Ganieva (2021). Studying the different formations of apple trees in intensive orchards. *TSENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 6(6).

7. Ataeva, Z., Yunusov, R., Nazarova, S., & Ganieva, F. (2020). INFLUENCE OF CULTIVAR COMBINATIONS AND SEEDLING THICKNESS ON THE FORMATION OF PHYTOMETRIC INDICATORS AND PRODUCTIVITY OF PEAR TREES IN INTENSIVE ORCHARDS. *TSENTR NAUCHNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 10(9).

8. The effect of cutting (pruning) methods and levels in intensive gardens on the formation of apple trees. Yunusov, R., Ikramova M.L., Ganieva F.A., Shadiyeva S.S. *ResearchJet journal of Analysis and Inventions*. ISSN: 2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022. <https://researchjet.academiascience.org>.

9. Ганиева Ф.А., Юнусов Р. Бухоро вилояти шароитида интенсив олмазорларда ўсиш ва ҳосилдорликнинг нав-пайвандтаг комбинациялари ҳамда кўчат қалинлигига боғлиқлиги. Монография. Бухоро. Дурдона, 2021й, 102б.